

**SH TASHLASH INSTITUTINING HUQUQIY TARTIBGA SOLINISHI:
QONUNCHILIKDAGI YANGI O‘ZGARISHLAR TAHLILI**

A.Isoqulov

Narpay tuman adliya bo‘limi yuridik xizmat ko‘rsatish markazi bosh yuriskonsult

Mamlakatimizda mehnat munosabatlarini yanada takomillashtirish, xodimlar va ish beruvchilar manfaatlarini muvozanatini ta‘minlash maqsadida mehnat qonunchiligi muntazam ravishda takomillashtirib borilmoqda. 2026-yil 11-iyunda qabul qilingan O‘RQ–1150-sonli Qonun bilan Mehnat kodeksi hamda ayrim qonun hujjatlariga muhim o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi. Mazkur o‘zgartirishlar jamoaviy mehnat nizolarini hal etishning muhim vositasi hisoblangan ish tashlash institutining huquqiy asoslarini belgilab berdi.

Qonunchilikka ko‘ra, yarashtirish tartib-taomillari orqali jamoaviy mehnat nizosini hal etishning imkoni bo‘lmagan taqdirda mehnat jamoasi ish tashlash to‘g‘risida qaror qabul qilishi mumkin. Bunda ish tashlashda ishtirok etish ixtiyoriy bo‘lib, hech kimni unda qatnashishga yoki qatnashmaslikka majburlashga yo‘l qo‘yilmaydi.

Ish tashlashni e‘lon qilish to‘g‘risidagi qaror tashkilot xodimlarining umumiy yig‘ilishida qatnashayotgan xodimlarning yarmidan ko‘pi tomonidan qo‘llab-quvvatlangan taqdirdagina qabul qilinadi. Shuningdek, mazkur qaror ish tashlash boshlanishidan kamida bir oy oldin qabul qilinishi lozim. Kasaba uyushmasi qo‘mitasi ish beruvchini bir ish kuni ichida yozma ravishda xabardor qilishi, ish beruvchi esa vakolatli davlat organlarini ogohlantirishi belgilandi.

Qonun bilan ish tashlash davrida xodimlarning huquqiy kafolatlari ham mustahkamlandi. Xususan, ish tashlashda qatnashgan xodimning ish joyi va lavozimi saqlanib qoladi hamda uning ushbu jarayondagi ishtiroki intizomiy javobgarlikka tortish uchun asos bo‘la olmaydi. Shu bilan birga, ish beruvchi ish tashlashda qatnashilgan davr uchun ish haqi to‘lamaslik huquqiga ega.

Ayrim toifadagi shaxslarning ish tashlashda qatnashishi taqiqlangan. Jumladan, tibbiyot xodimlari, davlat fuqarolik xizmatining ayrim lavozimlarini egallab turgan shaxslar, harbiy xizmatchilar, sudyalari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari, shuningdek energiya, suv ta‘minoti va aloqa tizimlari xodimlari ish tashlashlarda ishtirok eta olmaydi. Bundan tashqari, favqulodda holat, favqulodda vaziyat, urush holati yoki umumiy safarbarlik davrida ish tashlash o‘tkazish taqiqlanadi.

Qonunchilikda ish tashlash bilan bog‘liq javobgarlik masalalari ham aniq belgilab qo‘yildi. Mehnat qonunchiligida taqiqlangan hollarda ish tashlashda qatnashganlik uchun ma‘muriy javobgarlik nazarda tutilgan. Noqonuniy ish tashlashga rahbarlik qilish esa yanada og‘irroq javobgarlikka sabab bo‘ladi. Takroran sodir etilgan bunday harakatlar uchun jinoiy javobgarlik, jumladan katta miqdordagi jarimalar, majburiy jamoat ishlari, ozodlikni cheklash yoki ozodlikdan mahrum qilish jazolari belgilangan.

Ish tashlash institutining qonunchilik darajasida batafsil tartibga solinishi mehnat munosabatlarida huquqiy aniqlikni ta‘minlashga xizmat qiladi. Yangi normalar bir

20-Iyun, 2026-yil

tomondan xodimlarning o‘z manfaatlarini himoya qilish huquqini kafolatlasa, ikkinchi tomondan jamiyat va davlat manfaatlarini, jamoat xavfsizligi hamda uzluksiz faoliyat ko‘rsatishi zarur bo‘lgan sohalar barqarorligini ta‘minlashga qaratilgan. Mazkur o‘zgartirishlar mehnat sohasida ijtimoiy sheriklik va qonun ustuvorligini mustahkamlashga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.